

YANGI DARSLIKLAR HAQIDA

Eshmurodova Iroda

TOSHDO‘TAU 4-kurs talabasi

Tel: +998507776624

Annotatsiya: Mazkur maqolada yangicha dunyoqarash, texnika asriga munosib darsliklar yaratilishi haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim tizimi, yangi darslik, QR kod, tayyor tahlil, ijodiy fikr, vazn, mazmun, ohang, xatolik.

Abstract: This article provides a comprehensive discussion of the need for a newworldview and the creation of textbooks worthy of the age of technology.

Keywords: education system, new textbook, QR code, ready-made analysis, creative thought, weight, content, tone, error.

Mustaqillik sharofati bilan juda ko‘p sohalar kabi ta’lim tizimida ham bir qator islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, 1997-yilda e’lon qilingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da¹ hamda 2020-yilda qayta ishlab chiqilgan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda ta’lim sifati, nazorati alohida belgilab qo‘yilgan. Uning 5-moddasi ta’lim olish huquqi qismida umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta’lim va boshlang‘ich professional ta’limni bepul olish alohida ahamiyatga ega.² Negaki, millat farzandining o‘qishiga davlatning o‘zi homiylik qilishi yoshlariga bo‘lgan, millat kelajagiga bo‘lgan yuksak e’tibordan dalolatdir. Zero, buyuk bobokalonimiz Yusuf Xos Hojib aytganidek:

¹ <https://lex.uz/docs/-484014-197077>

² <https://lex.uz/docs/-5013007>

O‘quv qayda bo‘lsa , ulug‘lik bo‘lur ,

Bilim qayda bo‘lsa , buyuklik bo‘lur .

Milliy g‘oya asosida shakllangan hamda yillar davomida sayqallanib kelayotgan darsliklarimiz 2017-yildan boshlab yanada yangicha tus oldi. “Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq” deganlaridek, bugungi rivojlanayotgan texnika asrida o‘quvchini har xil qoidalarga to‘la qoliplarga solishdan ko‘ra, ijodiy fikrlashga o‘rgatish muhim bo‘lib qolmoqda. Buni esa darsliklarimizda namoyon bo‘lishi, albatta, ijobiydir.

Umumta’lim va ijod maktablari darsliklariga 2017-yildan keyin Prezident tashabbusi bilan ta’lim islohotlari kuchaytirilib, zamonaviy va innovatsion yondashuvlarga asoslangan yangi avlod darsliklari joriy etildi. 2022-yildan mazkur darsliklarga muhim o‘zgarishlar kiritilib, ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy yondashuvlarni joriy etish maqsadida ularning mazmuni takomillashtirildi. O‘quvchilarning bilim va savodxonligini oshirishga xizmat qiluvchi yangi uslub va metodikalar qo‘shilib, darsliklarning ichki tuzilishi ham yanada tushunarli va qulay shaklga keltirildi. Bu o‘zgarishlarning yutuqli tomonlari quyidagilar:

Birinchidan, kitob muqovalarining rang-barang va jozibali rasmlar bilan bezatilganidir. Rasmi muqovalarning ko‘paytirilishi o‘quvchilarning fikrlash va tasavvur qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, rasmi muqovalar o‘quvchilarda kitobga nisbatan qiziqish uyg‘otish va ta’lim jarayonini yanada yaxshilashga yordam beradi.

Ikkinchidan, QR kodlarning kiritilishi o‘quv jarayonini yanada qiziqarli bo‘lishiga xizmat qiladi. O‘quvchilar ushbu QR kodlar orqali tegishli videomateriallarga, audiokitoblarga hamda badiiy va hujjatli filmlarga osongina kirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Ayniqsa, adabiyot fanida bu usul juda foydali bo‘lib, asarlarning ekranlashtirilgan versiyalarini tomosha qilish orqali o‘quvchilar voqealar rivojini

chuqurroq anglash va qahramonlarning xarakterini yanada aniqroq tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu usul bilan o'quvchilar darslikdagi ma'lumotlar bilan cheklanib qolmay, mavzu bo'yicha qo'shimcha materiallarga ham, qo'shimcha bilimlarga ham ega bo'lishga muvaffaq bo'ldilar.

Uchinchidan, darslikdagi tayyor tahlillar olib tashlanganligi o'quvchilarning mustaqil fikrlashiga keng yo'l ochdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Endilikda o'quvchilar berilgan bitta tayyor xulosa bilan cheklanib qolmay, asarlarni o'z qarashlari asosida tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy qobiliyatini rivojlantirib, xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, tahlillar o'rniga mavzu mohiyatini ochuvchi hamda o'quvchini ijodiy fikrlashga undovchi savollar, topshiriqlar qo'yilgani o'quvchini o'ziga rom etmasdan qolmaydi.

Katta ishlarda kichik kamchiliklar ham bo'lgani kabi, mazkur yangi nashrdagi darsliklarda ayrim kamchiliklar ham kuzatiladi. Birinchidan, kitoblarning hajmi kattaligi va vaznining og'irligidir. Ilgari darsliklar ixcham va yengil bo'lib, o'quvchilar uchun qulay bo'lsa, hozirgi nashrlarda esa ularning hajmini sezilarli darajada oshirib yubordi. Bu holat ayniqsa yosh bolalar uchun katta va qalin kitoblarning har kuni maktabga olib borishi ancha og'irlik qiladi. Kerakli yukning og'iri yo'q deyishadi, ammo sillasi qurigan o'quvchiga bir narsani o'rgatish qiyin kechadi. O'quvchilarning sumkasiga kitoblar sig'masligi, tanasiga nisbatan katta va og'ir bo'lgan yukni ko'tarishi o'ylab ko'rilishi lozim bo'lgan ishlardan biri sanaladi.

Ikkinchidan, so'z qo'llash bilan bog'liq xatolar. Afsuski, ayrim darsliklarda imloviy hamda so'z qo'llash bilan bog'liq xatolarga duch kelamiz. Bu esa o'quvchilarning savodxonligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, balki chalkashlik keltirib chiqarishi, noto'g'ri

bilim shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Millat kelajagi bo‘lgan o‘quvchilar uchun tayyorlanayotgan darsliklarda, bunday xatolarga yo‘l qo‘yilishi aks ta’sir berishi mumkin.

Bugungi kunda “x” va “h” undoshlari orasida bir muncha qiyinchilik uchraydi. Bu holatning darslikda ham uchrashi og‘riqli nuqtadir. Masalan: 6-sinf adabiyot darsligida Alisher Navoiydan shunday hikmat keladi:

*Yigitlikda yig‘ilmning mahzani,
Qarilik chog‘i sarf qilg‘il ani.³*

“Maxzan” so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, xazina degan degan ma’noni anglatadi. “X” harfining “h” shaklda o‘qilishida (“mahzan”) ma’no anglashilmaydi. Alisher Navoiyning 10 jildlik “To‘la asarlar to‘plami”da ham ushbu bayt “maxzan” shaklda kelgan.

*Yigitlikda yig‘ilmning mahzani,
Qarilik chog‘i xarj qilg‘il ani.⁴*

Ustozlarimiz biror shoir yoki yozuvchining asaridan namuna olmoqchi bo‘lsak, hattoki punktuatsion tinish belgilarigacha aynan ko‘chirish kerakligini uqtirishadi. “Sarf” so‘zi “xarj” so‘zining sinonimi bo‘lsa-da, asl manbadagi keltirish maqsadga muvofiq bo‘lard. Ushbu darslikning 70-sahifasida Alisher Navoiyning ruboiysida so‘zning va qo‘shimchani noto‘g‘ri qo‘llanganligining guvohi bo‘lamiz:

*Har kimki **suchuk** so‘z elga izhor aylar,
Har nechaki ag‘yor durur yor aylar.
So‘z qattig‘i el **ko‘nglini** ozor aylar,
Yumshog‘i ko‘ngillarni giriftor aylar⁵*

³ 6-sinf uchun darslik / Z.I. Mirzayeva, K.Q. Jalilov. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 73-b.

⁴ Tarixi anbiyo va hukamo. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik. 16-tom. – Toshkent: Fan, 2000. – 248, 142-bet.

⁵ 6-sinf uchun darslik / Z.I. Mirzayeva, K.Q. Jalilov. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b

Alisher Navoiy “Nazm ul-javohir” asarida bu 206-ruboiy hisoblanib, quyidagicha berilgan:

*Har kimki **chuchuk** so‘z elga izhor aylar,
Har nechaki ag‘yor durur yor aylar.
So‘z qattig‘i el **ko‘ngliga** ozor aylar,
Yumshog‘i ko‘ngillarni giriftor aylar⁶*

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “suchuk” so‘zining aynan “chuchuk” tarzda kelishini ko‘rsatadi.⁷ Navoiy tili bizning qadimgi turk tilimiz asosi ekanligini inobatga olsak, Navoiy davrida “suchuk” so‘zi “chuchuk” tarzda ifodalangan bo‘lsa, ajab emas.

Tushum kelishigi “-ni” qo‘shimchasi butunni, jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi “-ga” yo‘nalish ma‘nosini bildirishini hisobga olsak, “ko‘nglini” va “ko‘ngliga” so‘zlaridagi ma‘no ham bir-biridan farq qilishini ko‘ramiz. Albatta bu ruboiyning mazmuniga ta‘sir qiladi.

Mazkur darslikning 70-sahifasida Alisher Navoiyning quyidagi ruboiysida so‘z tushib qolgan:

*Ko‘nglungni orit barcha yomon xislatdin,
Kim, yaxshi qiliq dalil erur rahmatdin.
Badxo‘ylik ul vahshat erur shiddatdin,
Kim elga xaloslik yo‘q vahshatdin⁸*

Ushbu ruboiy ham “Nazm ul-javohir”ga tegishli bo‘lib 106-ruboiy sifatida keltiriladi:

⁶ Alisher Navoiy. Nazm ul-javohir. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 10-jild. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi NMIU, 2013. – 684 b. 76-bet.

⁷ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5-jildlik, 3-jild. – T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” nashriyoti, 2005. 599-bet.

⁸ 6-sinf uchun darslik / Z.I. Mirzayeva, K.Q. Jalilov. – Toshkent: Respublika ta‘lim markazi, 2022. – 76.

*Ko‘nglungni arit barcha yamon xislatdin,
Kim, yaxshi qiliq dalil erur rahmatdin.
Badxo‘ylik ul vahshat erur shiddatdin,
Kim, elga xalosliq yo‘q ul vahshatdin.⁹*

Ko‘rinadiki, ruboiyning 4-misrasida “ul” ko‘rsatish olmoshi darslikda tushib qolgan. Bu o‘zgarish, albatta, ruboiy mazmuni bilan birgalikda vazniga ham ta’sir qiladi. Ruboiyning o‘ziga xos vazni bo‘lib, unda hazaj bahrining axrab va axram tarmoqlarining 24 vaznida yozilishi “Mezon ul-avzon” asarida belgilab qo‘yilgan¹⁰

Shunga binoan “Kim, elga xalosliq yo‘q ul vahshatdin” misrasi hazaji musaddasi axrabi solimi axram (maf‘uv-lu/ma-fo-iy-lun/maf‘uv-lun) bo‘lib, ruboiy vazni qoidalariga umuman tushmaydi. Ruknlar soni bir misrada 4 ta emas, 3 ta bo‘lib qolishi, aruz qoidalariga ko‘ra axram rukni misra oxirida kelmasligi fikrimizni dalillaydi. “Kim, elga xalosliq yo‘q ul vahshatdin” misrasidagi ul ko‘rsatish olmoshi “yomon xislat” so‘zining o‘rnida qo‘llanilishini ifodalaydi. Vazni ham ruboiy vaznlariga xos bo‘lgan hazaji musaddasi axrabi maqbuzi solimi abtar (maf‘uv-lu/ma-fo-iy-lun/ma-fo-iy-lun/fa‘) shaklida bo‘ladi va ohangdoshlik kasb etadi.

Bizga ma’lumki, aruz vaznida ohang asosiy bo‘lib, bo‘g‘inlarning soni bilan birga sifatiga ham e’tibor qaratiladi. Ayrim so‘zlar vazn chiqishi uchun ma’noga ta’sir etmagan holda o‘zgartiriladi. Masalan, “bila” so‘zi “ila” shaklida, “suv” so‘zi “su” shaklida v.h. Ularni o‘z holicha yozish maqsadga muvofiqdir. Darslikda keltirilgan ruboiyda bunga amal qilinmaganlik holatini ko‘rishimiz mumkin. Masalan:

*Farzand ato qullig‘in chu odat qilg‘ay,
Ul odat **birla** kasbi saodat qilg‘ay.*

⁹ Alisher Navoiy. Nazm ul-javohir. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 10-jild. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi NMIU, 2013. – 684 b. 59-bet.

¹⁰ Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 10-jild. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi NMIU, 2013. – 684 b. 552-bet

*Har kimki atog‘a ko‘p rioyat qilg‘ay,
O‘g‘lidan **bu ish anga** siroyat qilg‘ay.¹¹*

Ushbu ruboiy ham “Nazm ul-javohir”ning 89-ruboiysi bo‘lib, quyidagicha berilgan:

*Farzand ato qullig‘in chu odat qilg‘ay,
Ul odat **ila kasbi saodat** qilg‘ay.*

*Har kimki atog‘a ko‘p rioyat qilg‘ay,
O‘g‘lidan **anga bu ish** siroyat qilg‘ay.¹²*

Darslikdagi “birla” so‘zi asl manbada “ila” shaklida kelgan. Bu holat ma’noga ta’sir qilmasa ham vazn buzilishiga olib kelgan. Ruboiyning 4-misrasida esa “anga bu ish” so‘zining darslikda “bu ish anga” tarzida kelishida ham vazn buzilishini ko‘ramiz. Vaznni she’rdagi ohangning muhim jihatlaridan biri deb olsak, uni o‘zgartirish yoki buzish ohang va mazmun uyg‘unligiga putur yetkazadi.

Maktab darsliklarida bu xatoliklarning mavjudligi, albatta, to‘g‘rilanishi kerak bo‘lgan muhim jihat hisoblanadi. Biz bor yo‘g‘i bir darslik yuzasidan ayrim fikrlar bildirdik xolos. Boshqa darsliklarni varaqlar ekanmiz, yanada ko‘p xatoliklarga duch keldik. So‘z qo‘llash bilan bog‘liq xatolar bilan birga butun boshli misralar ham tushib qolganining guvohi bo‘ldik. Mukammallik Allohga xos. Banda xato qilishi mumkin. Inson xato qilishdan qo‘rqish kerak emas, tuzatmaslikdan qo‘rqish kerak. Shu xatolar kitob sahifalariga qo‘shimcha qilib, shu sahifada tuzatish berish kerak, degan mazmunda kiritilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

¹¹ 6-sinf uchun darslik / Z.I. Mirzayeva, K.Q. Jalilov. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 71.

¹² Alisher Navoiy. Nazm ul-javohir. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 10-jild. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi NMIU, 2013. 684 b. 56-bet.

Adabiyotlar:

1. 6-sinf uchun darslik / Z.I. Mirzayeva, K.Q. Jalilov. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 76.
2. Alisher Navoiy. *Nazm ul-javohir*. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 10-jild. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi NMIU, 2013. – 684 b. 59-bet.
3. Jo‘rayev X., Ezoterik tafakkur vujudga kelishida: Navoiy, Shekspir, Gyote. “Sharq–u G‘arb: Navoiy va Gyote” mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. 2023-yil, 21-iyun. – Toshkent: “Nurafshon business”, 2023. 8–30-bet.
4. Jo‘rayev X. “Ilmi balog‘atning manbai”. “Sharq–u G‘arb renessans adabiyoti: Navoiy va Shekspir” mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari.